

## O‘Qib Tushunish Qobiliyatini Oshirish Uchun Yangi Metodlar

*Hamroyeva Nodira Salohiddinovna<sup>1</sup>, Hamroyeva Farida Faxriddinovna<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqlada o‘qish va tushunish mahoratlarini oshirish haqida so‘z boradi. Shuningdek maqlada o‘qib tushunish qobiliyatini shakllantirishga har tomonlama yordam beruvchi ba’zi metodlar va izlanishlar ta’rifi qayd etilgan. Bu bilan birga barcha metodlarning foydalariga tasnif berilgan. O‘qituvchilar va talabalar uchun samarali strategiyalar taklif etiladi, shu jumladan interaktiv o‘qitish, vizual materiallardan foydalanish va hamkorlikda o‘rganish. Bularning barchasi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qib tushunish, Skimming and Scanning, reading-response theory, kitoblar, tez o‘qish, madaniy konteks, individual ehtiyoj, kognitiv jihat.

### Kirish

Hozirgi globallashuv davrida chet tillarini o‘rganish inson uchun zaruratga aylanib bormoqda. Til o‘rganish shaxsiy rivojlanish, kasbiy imkoniyatlar kengayishi va madaniyatlararo muloqot uchun yangi eshiklarni ochadi. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro maydonligi ustuvorligi bu boradagi talabni yanada oshirgan. Shu sababli, ushbu maqlada tilni o‘rganishdagi eng muhim taraflaridan biri "O‘qib tushunish" qobiliyati to‘g‘risida so‘z yuritsak [1]. Hammaga ma'lumki, biz har qanday tilni o‘rganishda to‘rt mahorat bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘rganishimiz kerak, u xoh rus tili bo‘lsin, xoh ingliz tili va yoki coreys tili. Ushbu kerak bo‘ladigan to‘rtta mahoratlardan biri "O‘qib tushunish" hisoblanadi. Chunki, yangi so‘zlarni o‘zlashtirish, jumla tuzilishini tushunish, madaniy kontekstni anglash va maniqiy fikrlash til o‘rganish jarayonini tezlashtiradi va shu qatorda bu mahorat turli xil sertifikatlarda yuqori ballni qo‘lga kiritishiga yordam beradi. O‘qib tushunish mahorati boshqalarga qaraganda anchagina qiyinroq hisoblanadi. Chunki, oddiygina matnda qancha yangi lug‘atlar chiqishi mumkin va ularni har birini o‘rgansangiz, har bir gapni tahlil qilsangizgina qobiliyatizingiz oshishi mumkin. Bu esa anchagina vaqt talab etadi. Keling, o‘qib tushunish mahoratini yaxshilash uchun ta‘kidlab o‘tilgan metodlar haqida gaplashsak.

### Muhokama/natijalar

**"Set Clear Reading Goals"**-o‘qishni boshlashdan oldin, maqsadingizni aniqlab oling. Ma'lumot yig‘ish, tushunchani anglash yoki imtihonga tayyorlanish uchun o‘qiyapsizmi? Maqsadni bilish sizni matnning eng muhim jihatlariga e’tibor qaratishga va vaqtningizmi tejashga yordam beradi.

**"Expand your vocabulary"**- kuchli so‘z boyligi yaxshi o‘qish ko‘nikmalarining asosidir. Har kunni yangi so‘zlarni o‘rganing va ularni jumlalarda ishlatishga harakat qiling.

**"Pleasure Reading"**- Stephen Krashen o‘qishning tabiiy o‘rganishdagi muhim rolini ta‘kidaydi. U "ko‘ngilochar o‘qish" kontseptsiyasini rivojlantirgan. Krashenning fikriga ko‘ra, odamlar o‘zlari qiziqqan mavzularda ko‘proq o‘qisalar, ularning til va tushunish ko‘nikmalari oshadi.

**"Active Reading"**- o‘qib tushunish mahoratini oshirishga yordam beradigan yo’llardan biri bu "Active Reading" ya‘ni faol o‘qish hisoblanadi. Adlerning fikricha, o‘qish -bu muallif bilan muloqot jarayoni. O‘quvchi matnni o‘qish jarayonida savol berishi, izohlar yozishi va muallifning fikrlash tarzini tushunishga harakat qilishi kerak.

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillar instituti 1-kurs talabasi

<sup>2</sup> Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz filologiyasi kafedrasи katta o‘qituvchisi



**"Reader-Response Theory"**-ushbu nazariya haqida bildirilgan Rosenblattning fikricha, o'qish jarayonida o'quvchi va matn bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. O'quvchining hissiyoti, tajribasi va qiziqishi matnning qanday tushunilishini belgilaydi.

**"Experimental Learning"**- Deweyning fikricha, o'qish amalliy tajribalar bilan mustahkamlanishi kerak. O'quvchilar matndan o'rganib, uni real hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur.

**"Use Skimming and Scanning Techniques"**- Skimming: matnni tez ko'zdan kechirib, asosiy g'oyalarni aniqlash. Bu umumiylar ma'lumot olishda juda foydali. Scanning: matndagi aniq ma'lumotlarni masalan, ism, sana yoki kalit so'zlarni izlash hisoblanadi.

**"Improve Reading Speed"**- tezroq o'qib tushunishni pasaytirishni anglatmaydi. Avval o'zingizni vaqtga qarab sinan ko'ring va asta-sekin tezlikni oshiring. Shundagina tez o'qish bilan birgalikda tushunish darajasi ham oshadi.

**Reflect and Summarize**- matnni o'qib bo'lgach, uni tahlil qilish uchun bir oz vaqt ajraring. Xulosa yozing yoki kim bilandir muhokama qiling. Bu tushunishni mustahkamlashga har tomonlama yordam beradi.

**"Develop a Reading Habit"**- barqarorlik muvaffaqiyat kalitidir. Har kuni o'qish uchun 20-30 daqiqa vaqt ajraring. Qanchalik ko'p o'qisangiz, shunchalik mahoratli bo'lasiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan nazariyalar, metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, tushunishni kuchaytirish va bilimlarni hayotda qo'llash imkonini beradi. Har bir usul o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashadi, bu esa o'qish jarayonini yanada samarali qiladi. O'qish mahoratini rivojlantirish metodlari nafaqat matnni tushunishni yaxshilaydi, balki o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini ham kengaytiradi [2].

Birinchidan metodlar o'quvchilarga matnning mazmunini faqat yuzaki o'rganmasdan, uni tahlil qilish, muhim ma'lumotlarni ajratib olish va chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Matn bilan ishslash jarayonida savollar berish va mulohaza yuritish orqali o'quvchilar turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishni o'rganadi. Ikkinchidan ko'p va xilma-xil o'qish natijasida yangi so'zlarni o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa o'quvchilarning til qobiliyatini mustahkamlaydi. [3]. Metodlar orqali matnni hayotiy voqealar yoki shaxsiy tajriba bilan bog'lash o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shuningdek o'quvchilarga mos va qiziqarli matnlar tanlash orqali o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi, bu esa o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi [4]. O'quvchi o'z bilim darajasini tahlil qilishi, mustaqil ishlashi va matndan amaliyotda foydalanishni o'rganadi, bu o'z navbatida umumiy intellektual salohiyatni oshiradi. Bu metodlar o'qishni o'rganish jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli va foydali qiladi. Ular o'quvchilarni hayot davomida foydalana oladigan mustahkam bilim va ko'nigmalar bilan ta'minlaydi [5].

## Xulosa

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, o'qishning ijtimoiy, kognitiv va shaxsiy jihatlarini hisobga olgan holda, mazkur metodlar o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda va ularni bilimga chanqoq shaxs sifatida shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qib tushunishni oshirish uchun yangi metodlarni tatbiq etishda ta'lim jarayonining sifatiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tasdiqlovchi dalillar mavjuddir. Ta'lim tizimida ushbu metodlardan foydalanishni kengaytirishga ehtiyoj bor.

## Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
2. Krashen, S. D. (2004). *The Power of Reading: Insights from the Research*. Portsmouth, NH: Heinemann.
3. Adler, M. J., & Van Doren, C. (1940). *How to Read a Book: The Classic Guide to Intelligent Reading*. New York: Simon and Schuster.



4. Rosenblatt, L. M. (1938). Literature as Exploration. New York: Appleton-Century (1938).
5. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan

